



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL
YANVAR-DEKABR

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, Toshkent shahrida jami 36 222,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,1 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik korxona va tashkilotlar

9,5

28,3

62,2


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil 1-yanvar holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



Yillar kesimida soni



3 583

Bino va inshootlar qurish


754

Fuqarolik obyektlarini qurish

4 058

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 75,9 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'naliishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 49,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 74,3 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 41,2 foiz ulushni va 74,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.01.2023- y.	01.01.2024- y.	
Toshkent shahar	9 634	7 310	75,9

tumanlar:

Bektemir	221	181	81,9
Mirzo Ulug'bek	1 232	968	78,6
Mirobod	844	651	77,1
Olmazor	781	543	69,5
Sergeli	541	460	85,0
Uchtepa	681	427	62,7
Chilonzor	1 211	867	71,6
Shayxontohur	756	532	70,4
Yunusobod	1 183	866	73,2
Yakkasaroy	975	734	75,3
Yangihayot	273	273	100,0
Yashnobod	936	808	86,3



**2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra,
Toshkent shahrida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug‘bek (13,2)



Yunusobod (11,8)



Chilonzor (11,9)




Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	36 222,5	10 240,4	22 527,4	3 454,7
tumanlar:				
Bektemir	1 017,7	313,9	565,7	138,1
Mirzo Ulug‘bek	3 774,2	855,3	2 381,2	537,7
Mirobod	4 855,6	1 495,0	3 119,4	241,2
Olmazor	2 621,4	906,4	1 429,6	285,4
Sergeli	1 550,9	253,1	859,8	438,0
Uchtepa	1 598,3	412,7	934,1	251,5
Chilanzor	3 782,4	892,3	2 654,4	235,7
Shayxontohur	3 236,0	1 372,9	1 576,2	286,9
Yunusobod	5 670,6	2 118,3	3 237,5	314,8
Yakkasaroy	3 621,1	865,3	2 530,9	224,9
Yangihayot	1 800,8	448,5	1 131,5	220,8
Yashnobod	2 693,5	306,7	2 107,1	279,7

 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10 240,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 73,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 28,3% ni tashkil etdi.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA’LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,4 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,3 %) Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 37,4 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,1 %) ga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,2 % to‘g‘ri kelib, 2022-yil yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 9,7 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 120,2 % ni tashkil etgan holda 22 527,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



62,2

2023- yil
yanvar-dekabr

52,5


2022- yil
yanvar-dekabr



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Yunusobod tumanida (3 237,5 mlrd. so‘m yoki ulushi 14,4 %), Mirobod tumanida 2 789,4 mlrd. so‘m yoki ulushi 13,8 %) va Chilonzor tumanida (3 119,4 mlrd. so‘m yoki ulushi 13,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 9,5 %ni tashkil etdi yoki 3 454,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 858,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 35 364,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,4 % va 97,6 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-dekabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **59,2 %** i yoki **21 451,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

32,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **6 932,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **32,3 %** ni tashkil etdi.

58,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **12 534,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **58,4 %** ni tashkil etdi.

9,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 984,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,2 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	36 222,5	101,1	100,0
tumanlar:			
Bektemir	1 017,7	102,3	2,8
Mirzo Ulug‘bek	3 774,2	110,5	10,4
Mirobod	4 855,6	104,6	13,4
Olmazor	2 621,4	110,4	7,2
Sergeli	1 550,9	118,3	4,3
Uchtepa	1 598,3	65,4	4,4
Chilonzor	3 782,4	100,3	10,4
Shayxontohur	3 236,0	106,6	8,9
Yunusobod	5 670,6	100,6	15,7
Yakkasaroy	3 621,1	103,4	10
Yangihayot	1 800,8	100,5	5,1
Yashnobod	2 693,5	92,3	7,4



Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Maʼlumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun moʼljallangan hamda yashash uchun moʼljallanmagan binolar qurish boʼyicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

34,6

2022- yil
yanvar-dekabr

23,9

52,1

62,2

13,3

13,9

2023- yil
yanvar-dekabr



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 23,9 % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-dekabr ko'rsatkichga nisbatan 10,7 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib, 62,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 13,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,7 % ni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 54,3 % (1,5 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da




Yirik qurilish tashkilotlari
2022- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga kamaydi va 30,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 70,0 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga ko'payaydi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	36 222,5	24 912,7	5 688,1	5 621,7
tumanlar:				
Bektemir	1 017,7	674,5	156,3	186,9
Mirzo Ulug'bek	3 774,2	2 715,9	712,7	345,6
Mirobod	4 855,6	3 488,5	603,9	763,2
Olmazor	2 621,4	1 901,9	397,7	321,8
Sergeli	1 550,9	1 102,4	247,1	201,4
Uchtepa	1 598,3	1 002,0	220,8	375,5
Chilonzor	3 782,4	2 597,5	509,6	675,3
Shayxontohur	3 236,0	2 241,2	383,2	611,6
Yunusobod	5 670,6	3 937,2	908,6	824,8
Yakkasaroy	3 621,1	2 518,7	733,7	368,7
Yangihayot	1 800,8	1 182,2	261,5	357,1
Yashnobod	2 693,5	1 550,7	553,0	589,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr



ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

■ Fuqarolik obyektlarini qurish

■ Bino va inshootlarni qurish

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani 5 670,6 mlrd.so'm), Mirobod tumani (4 855,6 mlrd.so'm), Chilonzor tumani (3 782,4 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (3 774,2 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)